

2022-yil 22-iyul

Rossiyaning yetakchi kimyo kompaniyalaridan biri sanalgan “Shekinoazot” AJ “Farg’onaazot” AJni xususiy lashtirish jarayonlariga qiziqish bildirmoqda



21-22- iyul kunlari Rossiyaning yetakchi kimyo kompaniyalaridan biri sanalgan “Shekinoazot” AJ rahbariyati “O’zkimyoanoat” va “Farg’onaazot” aksiyadorlik jamiyatlariga tashrif buyurishdi.

Dastlab direktorlar kengashi raisi Sokol Boris Aleksandrovich boshchiligidagi “Shekinoazot” AJ delegatsiyasi “O’zkimyoanoat” Ajda bo’lishdi. Uchrashuvda “O’zkimyoanoat” Aj tomonidan

yurtimizning yirik kimyo korxonlarini transformatsiya qilish jarayonlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar hamda amalga oshirilayotgan yangi loyihalar yuzasidan taqdimot o'tkazildi. Shu bilan birga, "Shekinoazot" AJ ham kompaniya tomonidan so'nggi yillarda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari, ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar, qolaversa, metanol ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bo'yicha joriy qilingan zamonaviy texnologiyalar bo'yicha o'z tajribasini taqdimot qildi.





Shuningdek, mamlakatimizning yirik kimyo korxonalaridan biri sanalgan “Farg’onaazot” AJning xususiylashtirish jarayonlariga qiziqish bildirgan “Shekinoazot” AJ delegatsiyasi 22-iyul kuni korxonada faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida “Farg’onaazot” AJga ham tashrif buyurishdi. Tashfir davomida delegatsiya a’zolari korxonada hududi, ishlab chiqarish jarayonlari va texnologiyalari hamda amalga oshirilgan yangi loyihalar bilan tanishishdi.





Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "Shekinoazot" AJ Rossiya kimyo korxonalari orasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi va 65 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya va jahon kimyoviy xom ashyo va mahsulotlar bozorlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib keladi.



“O'zkimyo sanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/rossiyaning-yetakchi-kimyo-kompaniyalaridan-biri-sheki-noazot-aj-fargonaazot-ajni-xususiylashtirish-jarayonlariga-qiziqish-bildirmoqda>